O‘RTA PALEOLIT DAVRI ODAMLARINING UMR DAVOMIYLIGI BO‘YICHA YANGI QARASHLAR

Shodmonov A.A.
Temiz davlat universiteti o‘qituvchisi
anvarshodmonov83@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21427878

Anatatsiya: O‘rta paleolit davri (taxminan 300 ming yil avvaldan 30 ming yil avvalgacha) odamlarining umr davomiyligi haqida ma'lumotlar arxeologik qazilmalar va antropologik tadqiqotlar asosida taxmin qilinadi. Bu davrda yashagan neandertallar va zamonaviy odamlarning dastlabki ajdodlari umr ko‘rish muddati qisqa bo‘lgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, o‘rtacha umr davomiyligi 30-40 yoshni tashkil etgan. Biroq, ayrim neandertallarning 50 yoshgacha yashaganiga oid dalillar topilgan. Bu esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va guruh hayotining ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu sababli, bu davrda odamlarning umr davomiyligi tabiiy va ijtimoiy omillarga bog‘liq bo‘lgan. Ushbu maqola orqali ilk odamlarning umr davomiyligini mintaqaning turli tabiiy sharoyitlarda turli yoshda ko‘rishimiz mumkin. Ba’zi mintaqalarda neandertallar uzoqroq yashagan bo‘lsa boshqa tabiyat injiqliklari yuqori joylarda esa o‘limning erta kelishi kuzatilgan. Ushbu ilmiy maqolda qadimgi insonlarning umr davomiyligi va ularning umr ko‘rishiga ta’sir etuvchi omillar haqida qisqacha ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: Homo, neandertal, paleantalogiya, tafakkur, ong, dafn etish marosimlari, o‘rtacha umr, umr ko‘rishiga ta’sir etuvchi omillar.

РАСШИРЕНИЕ ЖИЗНИ ЛЮДЕЙ СРЕДНЕГО ПАЛЕОЛИТА (ВЛИЯНИЕ ЕСТЕСТВЕННОЙ СМЕРТИ НА МЫШЛЕНИЕ)

Аннотация: Сведения о продолжительности жизни людей периода среднего палеолита (примерно от 300 000 до 30 000 лет назад) оцениваются на основе археологических находок и антропологических исследований. Неандертальцы и ранние предки современного человека, жившие в этот период, имели короткую продолжительность жизни. По данным исследований, средняя продолжительность жизни составляла 30-40 лет. Однако были найдены доказательства того, что некоторые неандертальцы жили до 50 лет. Это показывает важность социальной поддержки и групповой жизни. Поэтому продолжительность жизни людей в этот период зависела от природных и социальных факторов. Благодаря этой статье мы можем увидеть продолжительность жизни первых людей в разном возрасте в разных природных условиях региона. В некоторых регионах неандертальцы жили дольше, а в других местах с большими капризами природы наблюдалась ранняя смерть. В данной научной статье собраны краткие научные сведения о продолжительности жизни древних людей и факторах, влияющих на продолжительность их жизни.
Ключевые слова: Гомо, неандерталец, палеонтология, мышление, сознание, погребальный обряд, средний срок жизни, факторы, влияющие на продолжительность жизни.

THE LIFE EXPANSION OF THE PEOPLE OF THE MIDDLE PALEOLITHIC PERIOD (THE INFLUENCE OF NATURAL DEATH ON THINKING)

Annotation: Information about the lifespan of people of the Middle Paleolithic period (from about 300,000 to 30,000 years ago) is estimated on the basis of archaeological finds and anthropological studies. Neanderthals and the early ancestors of modern humans who lived during this period had a short life span. According to research, the average life expectancy was 30-40 years. However, evidence has been found that some Neanderthals lived up to 50 years. This shows the importance of social support and group life. Therefore, the life span of people in this period depended on natural and social factors. Through this article, we can see the life expectancy of the first people at different ages in different natural conditions of the region. In some regions, Neanderthals lived longer, and in other places with high vagaries of

nature, early death was observed. This scientific article contains brief scientific information about the life expectancy of ancient people and the factors affecting their life expectancy.

Key words: Homo, Neanderthal, paleontology, thinking, consciousness, burial rites, average life, factors influencing life expectancy.

KIRISH: Ibtidoiy odamlarning tafakkuri sekin kechganligi singari insonning biologik o‘zgarishi ham niohyatda sekin kechgan. Katta davrlar mobaynida o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi o‘sib borgan. Ayniqsa o‘rta paleolitning oxirgi davrlaridan boshlab so‘ngi neandertallar misolida o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi osha borgan. Bronza davriga kelib esa o’rtacha umr davomiyligi innsonning aql zakovati, tafakkurining rivoji natijasida osib borganganligini ko’ramiz.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa oxirgi choragida O‘rta Osiyo hududida 300 dan ortiq o‘rta paleolit, ya’ni muste[1] davriga oid neandertal[2] odamlarning makonlari aniqlandi.[1, B. 40]. Ushu makonlarni organish natijasida neandertallarda odatiy erta tabiiy o’limning kamayishi ortib brogan. Buning asosiy sababi insonlarda tafakkur jarayonlari o’sib broganligidir.

ADABIYOTLAR TARIXLILI VA METODLAR:

Eng qadimgi odamlar qanday va qancha umr ko‘rganligini olimlarimizni doyim qiziqtirib kelgan. Insonni umr ko‘rish davomiyligi jahon miqyosida eng qadimgi davrlardan “Homo” urug’i o‘rganish boshlangan chog‘dan jiddiy ishlar amalga oshirilgan. Ayni bu masala o‘rgaish qiynd bo‘lgan bo‘lsada lekin, hozirda paleantropologiya paleantologiya arxeologiya biologiya va shu kabi zamonaviy fanning o‘rganish imkoniyatlari deyarli yetarli. Bu ish bilan Kembrij universiteti proffessori T. Ualdron (1989) neandertallar va oldingi gominidlarning osteologik topilmalari tahlili natijasida ularni rekonstruksiya (qayta tiklash) ishlari bilan keng shug‘illanib kelmoqda.

Arxeologik olim O’ Islomovning «Палеоэкология и следы древнего человека в Центральной Азии» nomli ilmiy kitobida Qadimgi odamlarning yashashiga ekolgiyaning ta’sir qilish omillari keltirib o’tilgan.

A.P Okladnikov Y.A.Smirnov, M.A Gremyaskiy asarlarida ham inson umri bilan bog‘liq muhim ma’lumatlar berib otilgan.

M.A.Gremyatskiy, M.F.Nesturx (tahr.) “Тешик-Таш. Палеолитический человек” asari ham muhim ahamiyat kasb etdi. Unda A.P.Okladnikov tomonidan olib borilgan qazishmalar paleontologik ma’lumotlar, ehtimol, skeletning kech o‘rta pleystotsen yoki erta kech pleystotsen davrini aniqlaydi. G‘ordan topilgan tosh qurollar Yevropaning o‘rta paleolitik davriga to‘g‘ri keladi. Bosh suyagi mahorat bilan tiklangan. Arxeolog-haykaltarosh M. M. Gerasimov va skelet suyaklari Teshiktosh tipidagi qazilma gominidlarning juda qadimiyligini ko‘rsatuvchi bir qancha xususiyatlarni ochib berishga imkon berdi. Bu holatlarning barchasi Teshiktosh skeletini odamlarning qazilmalari haqidagi zamonaviy fan uchun mavjud bo‘lgan eng ishonchli hujjatlardan biri sifatida tasniflashga imkon beradi.

Teshiktosh topilmasi ishonchli paleoantropologik materiallari qadimgi odamni o‘rganishga juda ko'p yangi narsalarni olib keladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Insonlar dastlab tafakkuri natijasida g‘orlardan makon sifatida foydalanganlar. O‘z-o‘zidan ma’lumki, odatda g‘orlar jar yoqasidan 8 m dan 37 m gacha balandlikda joylashgan bo‘ladi[2, C. 8]. Bu insonni turli tabiiy ofatlardan va yirik xayvonlar xujumidan ximoyalanish, hamda erta o‘limning oldini olish uchun amalga oshirilgan oqilona harakatlaridan biridir.

Kembrij universiteti proffessori T. Ualdron (1989) neandertallar va oldingi gominidlarning osteologik topilmalari tahlili natijasida qayta tiklangan marhumning o‘rtacha yoshi 20-23 yoshni tashkil yetishini ta’kidlaydi [3, C. 55-57]. Yevropa neandertallarining demografik parametrlarini chuqur o‘rganish ishlari hamon davom etmoqda.

Inson o‘zini o‘limdan asrashi bilan birga o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan xolatlar ham mavjuddir.

[1] XIX асрнинг 60 – йилларида француз археологи Г.Мортиле Франсиянинг жануби-ғарбидаги Ле-Мусте ғоридан суяк ва тош қуроллар топганлиги учун шу ном билан юритилади..

[2] ГФРнинг Дюсселдорф шаҳрида жойлашган Неандертал водийси номидан олинган (1856 йил)

Erta o'lim sabab bo'luvchi omillar juda ko'p bo'lib bularga, hayot sharoitlari (*qattiq iqlim sharoitlari, sovuq va quruq muhit odamlarning hayotini qiyinlashtirgan)*, ov va yig'uvchilik *(ov va oziq-ovqat izlash xavfli bo'lib, jarohatlar va baxtsiz hodisalar ko'p bo'lgan),* tibbiyotning yo'qligi *(jarohatlar, kasalliklar va infektsiyalarga qarshi samarali davolash usullari mavjud emas edi)* va bolalikdagi o'lim darajasi *(bolalikda o'lim darajasi yuqori bo'lgani sababli, ko'plab odamlar balog'atga yetmay vafot etgan)* kabi jarayonlar bilan bogliqdir.

Neandertallar ovqatlarni yetarlicha chaynamasdan yutishgan. Oqibatda qorin bo'shlig'ining pastki o'ng qismida joylashgan "ko'r ichak" qismi to'lib qaladi. Juda ko'p xollarda shu sababgina neandertallarning o'limini keltirib chiqargan.

O'rta Osiyo muste davrida ibtidoiy odamlar tog'larda yashash imkoniyati kengroq bo'lgan. Ibtidoiy odamning sovuqga chidash harorati ko'pi bilan -20^0 S gacha bo'lgan. Bilamizki muzlik davrida havo harorati -20^0 S dan ancha yuqori bo'lgan. Shu sabablar ham inson o'limini erta olib kelgan.

O'rta paleolitda dafn etish an'analari endigina shakllana boshlagan va ehtimol guruhdagi barcha o'liklarni yemas, balki jamoaning ayrim a'zolari g'orlarga dafn etilgan. Neandertal odamlarning dafn etish marosimlari ong va tafakkur hamda odamlarning narigi dunyo haqidagi tasavvurlari va diniy dunyoqarashlarining taraqqiyoti haqida ishonchli artefaktlarini beradi[4, C. 8]. Marxumni yerga ko'mish g'oyasining o'zi albatta muximdir. Bu jarayon tiriklar bilan amalga oshirilmagan. Musterian odamining ongida o'lim g'oyasi xayotdan sifat jixatidan farq qiladigan insonning aloxida xolati sifatida namoyon bo'la boshlagan [4, C. 7].

Paleolit davri bilimdoni O'.Islomov ilk etiqod qilish ananalari O'rta Osiyo hududida, jumladan mamlakatimiz hududida boshlangani xaqida qat'iy ilmiy fikrlarni bildirib o'tgan[5, B. 32]. Bu davrda mayitni oldindan rejalashtirilgan va urf odatga aylangan maxsus marosim bilan dafn etishgan. Xuddi shunday so'nggi muste davriga oid qazilma bundan 60 ming yillar muqaddam yashagan odamning qabri Iroqning Zagros tog'idagi Shanidar[3] g'oridan topilgan. Qabrdan sakkiz turdagi o'simlik qoldiqlari topilgan. Ularning beshtasi dorivor o'simliklar, qolganlari iste'mol qilinadigan o'simliklarning qoldiqlari ekanligi aniqlangan. Ko'rinib turibdiki, ajdodlarimiz shu davrdan boshlab dorivor va ziravor o'simliklardan foydalana boshlashgan. Odamlar uzoqroq umr ko'rish uchun intilganlar.

Neandertallarning qoldiqlarini o'rganishda biz o'limning tabiiy sabablarini bilan birga balki dafn marosimi paytida jins va yosh mezonini aniqlaydigan sun'iy na'muna bilan shug'ullanish maqsadga muoffiqdir. Ikki yuzdan ortiq shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar hali ham O'rta paleolit davriga xos bo'lgan o'liklarning yosh taqsimotidagi asosiy tendensiyani aks ettiradi. Biz ko'ramizki, tosh davrida bu ko'rsatkich o'rta paleolitda, undan oldingi davrda ham amalda deyarli bir xil bo'lgan. So'ngi paleolitda homo sapiensning sinxron va keyingi populyatsiyalarida esa, albatta, yuqoriroqdir. O'rta paleolit ilk davrida neandertallarning dastlabki shakllari uchun bu ko'rsatkich 26,2 yilni tashkil etadi [6, C. 12-23]. Boshqa bir ma'lumotlar esa Neandertal va Denisovlar hayotining "asl" davomiyligi esa 38 yil deb aytadi. [7.] Yuqori paleolit davridagi odamlar uchun o'limning o'rtacha yoshi jinsidan qat'iy nazar 31 yoshni tashkil qiladi. [8, C. 14-19]. Tosh davrining keyingi davrlarida bu ko'rsatkich yuqori paleolitdagiga teng yoki sezilarli darajada yuqori bo'lsamasada, bu ko'rsatgich so'ngi bronzaga borib 34.3 yoshni tashkil qiladi.

Tosh va ilk metallar davrida insonlarning o'rtacha umr davomiyligi
The average life expectancy of people in the Stone and Early Metal Age

№	Davrlar	Erkak	Ayol	O'rtacha umr yoshi
1	Astrolopitek:			
	A.Robustus			19.8

[3] Тош даврига оид ғордир. Ироқнинг шимолидаги Загрос тоғларида жойлашган. Америкалик археолог Р.Солецкий томонидан тадқиқ этилган (1951-65). 5 та маданий қатламидан иборат. Ғорнинг юқори қатламида ҳозирги ва антик даврга оид ашёлар топилган. Шанидарнинг энг қуйи қатламидан мил. ав. 44-48 минг йилги, муетъе даврига оид тош қуроллар ва 10 та неандертал одамларининг скелети қодиқлари чиққан. Булардан пастрокда топилган гўдак скелети улардан ҳам қадимийроқ - 60 минг йилга тенг. Шанидар ғорига дастлаб муетъе одамлари тахминан 100 минг йил аввал келиб жойлаша бошлаган.

	A.Afrikanus			22.9
2	Neandertal			26.2
3	So‘ngi paleolit odamlari	33.3	28.7	31
4	Mezolit odamlari	35.3	29.3	32.3
5	Neolit odamlari	34.3	29.8	31.1
6	Eneolit odamlari			
7	Ilk bronza	33.3	29.5	31.4
8	O‘rta bronza	36.3	30.8	33.6
9	So‘ngi bronza	36.4	32.1	34.3

XULOSA: Shunday qilib, o‘rta paleolit davrida odam jinsidan qat’i nazar, o‘rtacha umr ko‘rishning o‘sishi kuzatiladi. Tosh asri va ilk metallar davrlarida yerkaklar va ayollarning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi kichik farq bilan ortib boradi (4-6 yilga yetadi). Tabiiy o’lim ortidan insonlarda obektiv voqelikning ongdagi tasiri orqali haqiqiy komish marosimi vujudga keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Исломов.Ў. Жанубий Фарғона – инсониятнинг илк бешиги // Фан ва турмуш. – № 3-4-5, 2008 Б-40 (*Islamov U. South Ferghana is the first cradle of mankind // Science and life. – No. 3-4-5, 2008 Pg-40*)
2. Гремяцкий М.А., Нестурх М.Ф. (ред.) Тешик-Таш. Палеолитический человек М.: МГУ, 1949. - 8 с. (*Gremyatsky M.A., Nesturkh M.F. (ed.) Teshik-Tash. Paleolithic man M.: Moscow State University, 1949. - Pg 8*)
3. Waldron T. 1989. The effects of urbanisation on human health // D. Serjeantson and T. Waldron (eds). Diet and Crafts in Towns. The Evidence of Animal Remains from the Roman to the Post-Medieval Periods. Oxford. P. 55-73. (British Archaeological Reports. British Series 199).
4. Ergashev O. T. “Tarixiy antropologiya”. (Tarix ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun). O‘quv qo‘llanma – Samarqand, SamDU nashri.2021- 110 bet. (*Ergashev O. T. "Historical Anthropology". (for history students). Study guide - Samarkand, SamDU edition. 2021- Pg. 110*)
5. Окладников А.П, Грот Тешик-таш. 1940. С 32 (*Okladnikov A.P. Grotto Teshik-tash. 1940. Pg 32)*
6. Смирнов Ю. А. Мустьерские погребения Евразии Возникновение погреб практики и основы тафологии / Ю. А. Смирнов; АН СССР, Ин-т археологии. - Москва : Наука, 1991. 12-23 с (*Smirnov Y. A. Mousterian burials of Eurasia The emergence of a cellar practices and fundamentals of taphology / Yu. A. Smirnov; USSR Academy of Sciences, Institute of Archeology. - Moscow: Science, 1991. 12-23 p.*)
7. Manba: https://sinaps.uz/maqola/3519/
8. Бужилова А.П. Homo sapiens история болезни. М 2005. С 14-19. (*Buzhilova A.P. Homo sapiens medical history.M 2005. Pg 14-19*)